



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№3 - 2025 (4) ISSN: 3060-5024



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№3 / 2025 (4)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Sharafutdinov Alisher Ozodovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Mirzayev Jahongir Umrzakovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
professor

Yernazarov Solijon Yerkinovich
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh
muharrir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK NAZARIYA VA TAHLIL

Berdialiyev B.E.
Ijtimoiy profilaktikaning kriminologik vaziyat barqarorligidagi o'rni 3

Якубов А.С., Азим Шухрат
Механизм правовой регламентации уголовной ответственности
юридических лиц 9

Irisbekov U.
Tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining jinoyi-huquqiy tavsifi va ularni
farqlash mezonlari 19

Tazetdinov R.R., Xoliqov Sh.A., Ikanov A.A.
The issue of social networks page cyber profiling 25

Akramov X.F.
Zamonaviy jamiyatda o'z joniga qasd qilishning nazariy asoslari va
amaliyoti 30

Jo'rayev M.U.
Jamoat xavfsizligi tushunchasi to'g'risida ekspert baholari 37

Исаев С.А.
Оценка загрязнения воздуха и последствий для здоровья от
пиротехнических изделий: вызовы и перспективы 41

A'loxonov M.A.
Zamonaviy kriminologiya: jinoyatchilikning oldini olishda innovatsion
yondashuvlar va kriminologik prognoz metodlari 49

KRIMINOLOGIK TADQIQOT VA AMALIYOT

Тураббаев Х.А.
Киберпреступность и права человека: особенности правового
регулирования и их взаимодействие 54

Nurmuhamedova G.B.
Boshqaruv tartibiga qarshi sodir etiladigan korrupsiyaga oid jinoyatlarga
qarshi jinoyi-huquqiy kurash 60

Mirzayev J.U.
Shaxslarning qayta jinoyat sodir etish holatlari va ma'lumoti bo'yicha
tahlillar asosida ko'rinishi lozim bo'lgan qo'shimcha chora-tadbirlar 70

Andrea Domokos, Alokxonov Mukhammadmirzokhan
Methodology and methodological foundations of research in modern
criminology 76

Tahririyat manzili:
100187, Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek tumani
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Elektron pochta: info@uzkti.uz
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yxatga
olingan.
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-
fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Uralova Dilafuzaxon Muminjon qizi

Musahhih

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali» dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 9,0

Adadi 50 nusxa

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 12.09.2025

Buyurtma № 25/40

MUNDARIJA

J'oraboyev O.A.

Ichki ishlar organlarida murojaatlarni ko'rib chiqish davomida shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash asoslari 82

Xasanov Sh.E.

Mahalla jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy profilaktikaning roli 88

ILG'OR XORIJIY TAJRIBA

Adilkariyev X.T., Murodov A.Sh.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik profilaktikasiga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasi tahlili 95

Nigmatov R.O., Kuchkarov T.R., Asqarov M.M.

Profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholashda innovatsion yondashuv: Buyuk Britaniya tajribasi asosida 103

TADQIQOTCHI MINBARI

Rixsimov K.A.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining tushunchasi va uning tarixiy-falsafiy asoslari 111

Nasrullayev F.S.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish institutining milliy va xalqaro huquqda amalga oshirilishining dolzarb muammolari 115

Axmedov A.A.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi (masofadan turib nazorat qilish misolida) 120

Maxtumova Yu.B.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasidagi ustuvor yo'nalishlar 126

Садриддинов Ш.Ш.

Понятие и значение миграционных процессов в Республике Узбекистан: правовые и социально-экономические аспекты 134

HUQUQ ILMI DARG'ALARI

Vasiqova M.S., Rahmonqulov X.R., Azizxo'jaev A.A. 138

TADBIRLAR

"Jinoyatchilikni ilmiy tadqiq qilishning dolzarb masalalari" mavzusida press-tur va matbuot anjumani 140

Xalqaro politsiya assotsiatsiyasi O'zbekiston klubi va O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti o'rtasida hamkorlik aloqalari mustahkamlandi 142

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINING TUSHUNCHASI VA UNING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI



Rixsimov Komron Abrorovich

Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada ozodlikdan mahrum qilish jazosining huquqiy asoslari, uning mazmun va mohiyati hamda tarixiy rivojlanishi tahlil qilingan. Jahon huquq tizimida, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ozodlikdan mahrum qilish jazosi jazo choralarining eng og'ir va asosiy turi sifatida qaralishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada Chezare Bekkarianing jazoning muqarrarlighi haqidagi g'oyasi va Jeremi Bentanning "Panoptikon" konsepsiyasi misolida jinoiy jazo tizimiga bo'lgan falsafiy qarashlarning mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ozodlikdan mahrum qilish, jazo, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya tizimi, Chezare Bekkaria, Jeremi Bentam, qamoqxona, tarixiy rivojlanish, qonunchilik, qayta tarbiya.

ПОНЯТИЕ НАКАЗАНИЯ В ВИДЕ ЛИШЕНИЯ СВОБОДЫ И ЕГО ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. В статье анализируются правовые основы, содержание, сущность и историческое развитие наказания в виде лишения свободы. Научно обосновывается, что в мировой правовой системе, в частности в законодательстве Республики Узбекистан, лишение свободы рассматривается как самый суровый и основной вид наказания. Кроме того, в статье раскрывается значение философских взглядов на систему уголовного наказания на примере идеи Chezare Беккариа о неотвратимости наказания и концепции «Паноптикон» Джереми Бентама.

Ключевые слова: лишение свободы, наказание, уголовное право, уголовно-исполнительная система, Chezare Беккариа, Джереми Бентам, тюрьма, историческое развитие, законодательство, перевоспитание.

THE CONCEPT OF PUNISHMENT BY DEPRIVATION OF LIBERTY AND ITS HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS

Abstract. The article analyzes the legal foundations, content, essence, and historical development of punishment by deprivation of liberty. It is scientifically substantiated that in the global legal system, and particularly in the legislation of the Republic of Uzbekistan, deprivation of liberty is considered the most severe and primary form of punishment. The article also discusses the significance of philosophical perspectives on the criminal justice system, using Cesare Beccaria's idea of the inevitability of punishment and Jeremy Bentham's concept of the "Panopticon" as examples.

Keywords: deprivation of liberty, punishment, criminal law, penal system, Cesare Beccaria, Jeremy Bentham, prison, historical development, legislation, rehabilitation.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi jahon huquq tizimida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham jazo choralarining eng og'ir va asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Bu jazo jazoni ijro etish muassasalarida mahkumning jamiyatdan majburiy ajratgan holda,

uning harakatlanish erkinligi, mehnat faoliyatini tanlash imkoniyati va vaqtdan foydalanish huquqini cheklash bilan bog'liq.

Ozodlikdan mahrum qilish – jinoyat sodir etgan shaxsni muayyan muddatga yoki umrbod belgilangan joyda saqlash orqali uning shaxsiy erkinligini to'liq cheklashga qaratilgan jazo turi.

Bu jazo turi jamiyat xavfsizligini ta'minlash, jinoyat sodir etgan shaxsni isloh qilish va qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Yuridik nuqtayi nazardan, *ozodlikdan mahrum qilish jazosi* O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan jazo turlaridan biri bo'lib, uni qo'llash tartibi, muddatlari va shartlari qonunchilikda aniq ifodalangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish jazosi Kodeksning tegishli moddalariga asosan sud hukmi bilan va jinoyatning og'irlik darajasiga ko'ra qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksning 50-moddasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi mahkumni jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iborat ekanligi belgilangan.

Ozodlikdan mahrum qilish bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi.

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (JKning 97-moddasi ikkinchi qismi) va terrorizm (JKning 155-moddasi uchinchi qismi) uchun tayinlanishi mumkin.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayollarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum qilish bir necha jazolarni qo'shish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan jinoyati va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga jazoni manzil-koloniyalarda;

b) qasddan og'ir jinoyat sodir etganlik va o'ta og'ir jinoyati uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga jazoni

umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib yoki o'tayotgan chog'ida, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga jazoni qattiq tartibli koloniyalarda;

g) o'ta xavfli retsidivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar, shuningdek afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlarga hamda qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlarga jazoni manzil-koloniyalarda;

b) og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib, yangi sodir etgan o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga, shuningdek o'ta xavfli retsidivist deb topilganlarga jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi.

Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish, jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga:

a) o'ta xavfli retsidivistlarga;

b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek qonunchilikka muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi [1].

Sud tomonidan jazoni manzil-koloniyada o'tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni

jazoning o'talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o'tkazadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining tarixi juda qadimiy bo'lib, turli davrlarda turlicha shakllarda qo'llanilgan. Qadimgi dunyoda bu turdagi jazo, asosan, mahkumlarni qullikka solish yoki majburiy mehnatga jalb etish shaklida mavjud bo'lgan.

O'rta asrlarda esa qamoqxonalar, asosan, jinoyatchilarga nisbatan fizik jazo yoki o'lim jazosini qo'llashdan oldin ushlab turadigan joy vazifasini bajargan. Faqatgina XVIII–XIX asrlarga kelib, gumanistik g'oyalarning keng tarqalishi natijasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi mustaqil va asosiy jazo turi sifatida shakllandi.

Bu davrdagi mutafakkirlar, jumladan, *Chezare Bekkaria* va *Jeremi Bentam* singari olimlar o'lim jazosi va qiynoqlardan ko'ra, qamoq jazosini adolatliroq va samaraliroq deb hisoblashgan.

Italiyalik faylasuf va huquqshunos *Chezare Bekkarianing* 1764-yilda nashr etilgan *“Jinoyatlar va jazolar haqida” (Dei delitti e delle pene)* asari ma'rifatparvarlik davrining eng muhim hujjatlaridan biri hisoblanadi.

Ch.Bekkaria o'z asarida quyidagi g'oyalarni ilgari surgan:

Qiynoqlarga qarshilik. Uning fikricha, qiy-noqlar adolatsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, ular aybsiz insonni aybdor qilishi, kuchsiz va aybsiz insonni aybni tan olishga majburlashi mumkin.

O'lim jazosiga qarshilik. Ch.Bekkaria o'lim jazosini davlatning inson hayotiga bo'lgan mutlaq hokimiyati sifatida qabul qilmagan. Uning fikricha, o'lim jazosi jinoyatchilikning oldini olishda unchalik samarali emas. Uning o'rniga uzoq muddatli va qattiq qamoq jazosi samaraliroqdir, chunki u odamlarga jazoning muqarrarligini ko'rsatib turadi.

Qonuniylik tamoyili. Har qanday jazo qonun asosida, sud tomonidan belgilanishi kerak.

Jazoning muqarrarlighi. Jinoyat uchun jazoning og'irligi emas, balki uning muqarrarlighi jinoyatchilikning oldini olishda muhimroq [2].

Shu bilan birga, ingliz faylasufi va huquqshunosi *Jeremi Bentam* ham tarixda “utilitarizm”

nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. Uning fikricha, har qanday qonun yoki jazo “maksimal darajada baxtni ko'paytirish”ga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bentam qamoqxonalarni isloh qilish tarafdori bo'lgan va *“Panoptikon”* konsepsiyasini taklif qilgan.

“Panoptikon” konsepsiyasining mohiyati shundaki, bu loyihada qamoqxona markazda joylashgan bir minoradan iborat bo'lib, u yerdan barcha kameralar kuzatib turladi. Mahkumlar esa kuzatilayotganini his qiladi, ammo nazoratchilarni ko'ra olmaydi. Bu esa mahkumlarda o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmini shakllantirishga yordam beradi.

Bentam uchun qamoq jazosining asosiy maqsadi jazolash emas, balki jinoyatchini qayta tarbiyalash va uni jamiyatga qaytarishdan iborat bo'lgan. U qamoqxonalarda mehnat, ta'lim va diniy tarbiyani joriy etishni taklif qilgan [3].

Chezare Bekkaria va Jeremi Bentam jinoyat huquqi sohasidagi inqilobiy g'oyalari bilan XIX asrdan keyingi jinoyat ijroiya tizimi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan mutafakkirlardir.

Bekkarianing fikricha, jinoyatning oldini olishning eng samarali yo'li jazoning muqarrarlighidir, uning shafqatsizligi emas. U *o'lim jazosi* va *qiynoqlarga* qat'iy qarshi chiqib, bu jazolarning adolatsiz va samarasiz ekanligini isbotladi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, jinoyat uchun tayinlangan jazoning *og'irligi emas*, balki uning *muqarrar ekanligi* jamiyatda tartib o'rnatishning asosiy kafolatidir.

Bentam esa bu g'oyani yanada kengaytirib, jinoiy jazoning asosiy maqsadi *jazolash emas*, balki *qayta tarbiyalash* va jamiyatga foyda keltirish ekanligini ilgari surdi. Uning *“Panoptikon”* konsepsiyasi zamonaviy qamoqxonalarni tizimini takomillashtirish uchun asos bo'ldi va nazorat hamda tartib-intizom orqali mahkumlarning o'zini o'zi nazorat qilish his-tuyg'ularini shakllantirish mumkinligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, bu ikki olimning qarashlari jinoiy jazolarni insonparvarlashtirishga, ularni faqatgina jazolash vositasi emas, balki *jamiyatni*

himoya qilish va jinoyatchini qayta ijtimoiy-lashtirish mexanizmi sifatida ko'rib chiqishga undadi. Ularning g'oyalari zamonaviy jinoyat-ijroiya qonunchiligining asosini tashkil etgan.

Shu ma'noda, ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash faqat jazolash vositasi emas, balki jamiyat xavfsizligini ta'minlash, mahkumni isloh qilish va uning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-

huquqiy mexanizm sifatida qaralishi lozim. Demak, bu institut nafaqat huquqiy, balki ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, uni takomillashtirish jinoyatchilikka qarshi samarali kurashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 1995.
2. Беккария Ч. О преступлениях и наказаниях. – Милан, 1764. – С. 21–22.
3. Bentam J. "Panoptikon" konsepsiyasi. – Krichev, 1787.

